

## NUTQNING KOMMUNIKATIV SIFATLARI

**Yaxshiyev Dilxushbek Otabekovich**

*Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2 kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada nutqning kommunikativ sifatlarini, har tomonlama kerakligi haqida so'z boradi.*

**Tayanch so'zlar:** *Nutqning to'g'riligi, nutqning aniqligi, nutqning tozaligi, nutqning mantiqiyliigi, nutqning ta'sirchanligi, nutqning maqsadga muvofiqligi, varvarizmalar, nutqqa putur yetishi, urg'u, grammatik me'yor, talaffuz, jargonlar,*

Bilamizki nutq bilan boshqa insonlardan ajralib turish qiyin. Chiroyli so'zlash, so'zlarni o'z o'rnida qo'llay olish, qo'shimchalarga ham alohida e'tibor qaratishimiz kerak. Nutq insonlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni hal qilishi ham mumkin. Masalan: ikki insonning kelishmovchiliklarini chiroyli gapirish, ularni yarashtirib qo'yish ham mumkin. Pul bilan hal qilinmagan narsalar ba'zan chiroyli nutq bilan hal bo'lyapti. Endi esa nutqning kommunikativ sifatlariga kelsak, ularni 6-ta turga bo'lib o'rganiladi.

Birinchisi: nutqning to'g'riligi. Nutqning to'g'riligiga V. G. Kostamarov shunday deb yozadi. „nutq madaniyatining zarur va birinchi sharti sifatida adabiy tilning ma'lum paytda qabul qilingan me'yoriga qat'iy va aniq muofiq kelishini, uning talaffuz, imloviy va grammatik me'yorlarni egallashni tushunish lozim bo'ladi". V. G. Kosmatov nutq to'g'riligini birinchi o'ringa qo'ygan. Nutqning to'g'riligi uning eng muhim aloqaviy fazilatidir. Chunki nutq to'g'ri bo'lmasa, uning boshqa kommunikativ sifatleri, ya'ni mantiqiyliigi, aniqligi, maqsadga muvofiqligiga ham putur yetadi. Nutqqa putur yetishi ba'zan katta janjalga sabab bo'lishi mumkin.

Biz har kuni har joyda, har xil odamlar bilan muloqotda bo'lamiz. Ularning nutqi har xilligi e'tiborimizni tortadi. Hech o'ylab ko'rganmisiz, nega ularning nutqi har xil? Kimlardir ilmiy tilda gapiradi, kimdir shevaga xos so'zlar bilan gaplashadi. Chunki ular jamiyatda, har xildir. Tuzulishi, odobi, yurish-turishi ham har xildir. Nutqda esa bir xillik qonuni ilgari suriladi. Faqat ilmiyga asoslanib ish ko'riladi. Nutq go'zal inson, har joyda, har yerda o'z o'rnini topa oladi.

Nutq to'g'ri bo'lishi uchun, asosan, ikki me'yorga – urg'u va grammatik me'yorga qattiy amal qilish talab qilinadi. So'zlardagi urg'uning ko'chishi bilan ma'noning ham o'zgarib ketishi mumkinligini esdan chiqarmaslik lozim. Masalan: olma so'zi. Bu so'zni alohida urg'usiz olib qaraganda, uning qanday ma'noda qo'llanilayotganini aniqlash qiyin.

Ikkinchisi: Nutqning aniqligi: Nutqning aniqligi tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar bilan ularning nutqdagi atamasi bo'lgan materialni o'rtasidagi mutanosiblikni taqozo qiladi. Nutqimiz aniq bo'lmasa nima bo'lishini ko'z oldingizga keltiring? Biz

bitta harfni noto'g'ri aytib qo'ysak yoki biron-bir harfni tushurib aytsak u so'z yomon atamaga aylanib qolishi ham mumkin. Masalan: shahar-zahar, tayoq-arog

Nutq aniqligining beshta sifatlari bor.

- 1).Sinonimlardan o`rinli foydalanish;
- 2).Antonimlardan to`g`ri foydalanish;
- 3).Ko`chma ma`noli so`zlarni o`rinli qo`llash;
- 4).So`z birikmalarini to`g`ri qo`llash;
- 5).Iboralarni to`g`ri qo`llash;

Nutqning aniqligining birinchi sifati sinonimlardan o`rinli foydalanish. Sinonim bu --- ma`nodosh so`zlar hisoblanadi. Ya`ni bir umumiy ma`noni ifodalovchi ikki yoki undan ortiq so`zlardir. Masalan: yuz-aft-bashara-chehra.

Ikkinchi sifati: Antonimlardan to`g`ri foydalanish. Antonim bu- zid ma`noli so`zlar. Qarama-qarshi ma`noli so`z va qo`shimchalardir. Masalan: achchiq-chuchuk, baland-past.

Uchinchi sifat: Ko`chma ma`noli so`zlarni o`rinli qo`llash. Ko`chma ma`noli so`zlar bu -- So`zlar o`z ma`nosi bilan betaraf bo`lsalar ham, ammo uslubiy ma`no ifodalashi uchun ularning ma`nosi kontraktida ko`chma ma`noga ega. Masalan: Gulning chiroyli belgisi odamga (gul yuz), o`rin joyga (gulbog`), biror harakatga (qo`li gul), natijada (gul) so`zi qo`shimcha uslubiy mazmun oladi.

To`rtinchi sifat: So`z birikmalarini to`g`ri qo`llash. Siz birikmasida so`zlar o`zaro erkin bog`langan bo`ladi, tushuncha anglatadi. Masalan. Ko`ngildan o`tkazmoq (o`ylamoq), o`pkasi yo`q, (hovliqma).

Beshinchi sifati: Iboralarni to`g`ri qo`llash. Biz iborani adabiy tilda perifraza deb ataymiz. Perifraza, perifraz (yun. Periphrasis — tasviriy ibora; kinoya, istiora) — borlikdagi narsa va voqealarning nomini to`g`ridan-to`g`ri atamasdan, ularni bilvosita, ya`ni turli xil so`z yoki tasviriy iboralar bilan ifodalash; majoziy ifodalardan biri (mas, “sher” o`rnida “hayvonlar shohi”; “paxta” o`rnida “oq oltin”, Alisher Navoiy o`rnida “o`zbek adabiy tilining asoschisi” iboralarining qo`llanishi).

Uchinchi: nutqning tozaligi: Nutqimiz toza, sof bo`lishi uchun chetdan kelgan so`zlardan butunlay voz kechishimiz kerak. Biz bugungi kunda juda ko`p chetdan kelgan so`zlarni tez-tez ishlatamiz. Bu so`zlarni ishlatmaslik nutqning sofligini ta`minlab beradi. Nutqimizning sofligiga, asosan, quyidagilar tasir qiladi:

1. Mahalliy dialekt va shevalarga xos so`z, ibora, shuningdek, grammatik shakllar, so`z va so`z birikmalarining talaffuzi, urg`usi.

Biz bilamizki O`zbekistonda 130 DAN ortiq elat va millat yashaydi. Ularning ham o`z tili bor. O`z shevalarida bemalol gaplasha oladilar. Masalan mening millatim turkman. Men shevamda gapirsam, kursdoshlarim tushunmaydi. Shuning uchun iloji boricha o`zbek tilida gapiraman. Masalan. Nera, getdi, bardi.

2. O`rinsiz qo`llangan chet so`z va so`z birikmalari.

Biz chet el so`zlarini hayotimizda ham ko`p ishlatamiz. Lekin ularni qayerda qo`llashinilishini bilmaymiz. Ammo eshitib qolsak, aytib yuramiz. Iloji boricha bu

soʻzlarni ishlatilmasa, oʻz-oʻzidan yoʻq boʻlib ketishi mumkin. Bu soʻzlarga quyidagilarni misol qilib olsak boʻladi. paka, pajalista, spasiba, Toʻgʻri bular yomon soʻz emas, ammo nutqimizning sofligiga putur yetkazadi.

### 3. Jargonlar.

Jargon (fransuzcha: jargon safsata) — biror ijtimoiy guruhning oʻziga xos leksikasi, fonetikasi va grammatikasi bilan umum soʻzlashuv tili va mahalliy dialektlardan farq qiladigan tili. Jargon muayyan ijtimoiy muhitda yuzaga keladi va shular manfaatiga xizmat qiladi (maye, talabalar, harbiy xizmatchilar, turli kasb, mashgʻulot egalari orasidagi jargon). Bunday jargonlarni kuchli rivojlangan va aniq terminlarga ega biror kasb tili bilan aralashtirmaslik lozim. Jargon ham leksik, ham uslubiy jihatdan turli-tuman, tezda oʻzgaruvchan, barqaror boʻlmaydi.

Masalan, yoshlar orasida “ketdim” oʻrnida “sirpandim”, “pul” oʻrnida “soqqa”, “dollar” oʻrnida “koʻki”; sanʼatkorlar orasida “xizmat uchun haq olmaslik” oʻrnida “tom suvoq”, “pul” oʻrnida “yakan” va h. k. Jargonlar uchraydi.

### 4. Vulgarizmlar. Varvarizmlar.

Varvarizm yunoncha „barbaros“ aynan aynabiy degan maʼnoni bildiradi. Biz varvarizmlar deganda koʻz oldimizga chetdan kelgan soʻz, ammo toʻlaqonli ishlatmaydigan soʻzlarni tushunishimiz, kerak. Masalan, varvarizmlar iyemni (“Xanka”, “Tanka”), pulni (“koʻkidan” bormi — dollar bormi), lavozim va shaxsni (“mer”, “shef”, “bos”, “baron”) va hokazoni misol qilib olishimiz mumkin, shuningdek bu soʻzlar koʻpincha mazax qilishda foydalaniladi.

Nutqimizning toza boʻlishiga xalaqit berayotgan ling-vistik elementlar, asosan, dialektizmlar va varvarizmlardir. Toʻgʻri, ular tilimizda ishlatilishi kerak, busiz boʻlmaydi. Chunki badiiy adabiyot tilida dialektizm va varvarizmlar malum badiiy-estetik vazifani bajarishi, muallifning malum goyasini, niyatini amalga oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Tilda soʻkish, qargʻash maʼnolarini ifodalaydigan soʻzlar vulgarizmlar (lot. Vulgaris “qoʻpol” degani). Biz bugungi jamiyatimizda bu soʻzlarni koʻp eshitamiz. Bu soʻzlar yomon soʻz boʻlishiga qaramasdan odamlar orasida ommalashib ulgurgan. Bu soʻzlarning maʼnosiga tushunmaymiz, ammo tushunsak ham baribir aytaveramiz. Masalan: haromi, qiztaloq, yer yutkur, oqqadar. Bu soʻzlar ham diniy ham dunyoviy buzgʻunchi soʻz hisoblanadi. Siz qoningiz qaynab aytib qoshingiz mumkin. Bu soʻzlarni iloji boricha unuting. U soʻzlar oʻrniga oʻz ona-tilimizning yaxshi soʻzlaridan ishlatilg.

### 5. Nutqda ortiqcha takrorlanadigan «parazit» soʻzlar.

Parazit soʻzlar oʻzbek tilidan butunlay hisoblanadi. Bu soʻzlar nutqimizni tpsib qoʻyadi. Biz nutq soʻzlayotganimizda, yoki biror kim bilan muloqot oʻrnatayotganimizda bu soʻzlarni tez-tez uchratib turamiz. Biz bir nimani esdan chiqarsak, „nima edi, „ anavu“ kabi soʻzlarni aytamiz. Bu parazit soʻzlardir. Parazit soʻzlarning kelib chiqishining bosh boʻgʻini sizning soʻz boyligingizning yetishmasligidir.

## 6. Kanselyarizmlar.

Tildagi kanselyarizm deb ataladigan rasmiy-idoraviy uslubga xos bo'lgan so'zlar ham nutqning tozaligiga hamisha xavf solib turadi. Ular rasmiy uslubda fikrni ixcham va mantiqiy ifodalashga juda qulay. Ilmiy uslubda ham tayyor jumlar, shablon iboralardan foydalaniladi. Ammo bunday so'z va iboralarni so'zlashuv va badiiy nutq uslubida ishlatish matnga putur yetkazishdan boshqa narsa emas. Bunga A.Qahorning «Nutq» hikoyasi qahramonining tabiiylik va samimiyatdan xoli bo'lgan hamda shu yo'l bilan goyatda kuchli badiiy obrazni yuzaga keltirgan nutqi misol bo'la oladi. Parcha keltiramiz: O'rtoq rafiqam! Ijzat berasiz, xushchaqchaq hayotimizni sharaf bilan davom ettirib, oilaviy burchimizni namunalik bajarib kelayotganimizga bir yil to'lgan kunda sizni bevosita tabrik qilishga! Etibor beraylik: suhbatda o'nlab yoki yuzlab kishi emas, ikki kishi er va xotin ishtirok etayapti. Avval xotin bu gaplarni hazil deb o'ylaydi, «qiyqirib chapak chaladi». Ammo notiq jiddiy qiyofada so'zida davom etadi. Birinchidan, ikkinchidan deb oilada bir yil davomida yuz bergan yutuq-kamchiliklarni rasmiy ravishda sanab o'tadi va nutqni quyidagicha yakunlaydi: -Lekin bu kamchiliklarga qaramay, turmushimizni alo darajada olib borayotganligimizga hych qanday shubha bo'lishi mumkin emas deb hisoblash mumkin. Shu bilan qisqacha so'zimni tamom qilib, oilamiz bundan keyin ham sharaflar bilan qoplanajagiga to'la ishonch bildirishga ijzat bering!

Shu oltita belgilar nutqimizning tozaligiga putur yetkazadi. Nutqimiz toza bo'lsa, muomula madaniyati ham chiroyli bo'ladi.

To'rtinchisi: nutqning mantiqiyligi. Mantiqiy nutq deb yaxlit bir tizim asosida tuzilgan, fikrlar rivoji izchil bo'lgan, har bir so'z, ibora maqsadga muvofiq ravishda ishlatiladigan nutqqa aytiladi. Har bir so'z yoki tinish belgilari ham mantiqqa ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan: Kel joyinga o'tir! Joyinga bor! Nutqning bu sifati boshqa sifatlardan biroz ustunroq bo'lib turadi. Lekin bunday emas. Har bir sifatning o'z o'rnini bor. Biz ularni o'z o'rnida qo'llay olsak, hammasi ham kerak ekanligiga tushunib yetamiz.

Nutqning mantiqiyligi uning asosiy sifatlari – to'g'rilik va aniqlik bilan chambarchas bog'liqdir. Grammatik jihatdan to'g'ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun noto'g'ri tanlangan lug'aviy birlik ham mantiqiylilikni buzadi. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi va o'quvchiga ifodalanayotgan fikrning to'liq borib yetmasligiga, ba'zan, umuman, anglashmasligiga olib kelishi mumkin.

Beshinchisi: nutqning ta'sirchanligi. Nutqning ta'sirchanligi deganda, asosan og'zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi va shuning uchun uning tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruhiy vaziyatni e'tiborga olish ham muhim sanaladi. Ya'ni notiq auditoriyani hisobga olishi – ularning bilim daraja-sidan yoshigacha, hatto nutq ijro etilayotgan paytdagi kayfiyatigacha kuzatib turilishi, nutqning tinglovchilar tomonidan qabul qilinishi nazorat qilib borilishi lozim bo'ladi. Malakali bilimga ega bo'lgan kishilar oldida jo'n, sodda tilda gapirish maqsadga muvofiq bo'lmagani kabi, oddiy, yetarli darajada ma'lumotga ega bo'lmagan auditoriya oldida ham ilmiy va rasmiy tilda

gapirishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Xullas, notiqdan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi. Va butun diqqat-e'tibor ifodalamoqchi bo'lgan fikrni to'laligicha tinglovchilarga yetkazish vazifa qilib qo'yiladi. Siz o'zingiz ham nutqning bu sifatidan ko'p bora foydalangansiz! Yoshligingizda ota-onasiz, aka-opangiz yoki yaqin qarindoshingizga biron narsa oldirish uchun yig'lagansiz. Ularga o'zingizni ojiz qilib, g'arib qilib ko'rsatgansiz. Ular esa siz hohlagan narsani olib berishganidan so'ngina tinchlangansiz. Notiq ham shunday. Ular o'z oldiga maqsad qo'ydimi, bajarmasdan qaytmaydilar. Ular tinglovchiga o'z ta'sirini o'tkazadilar. Hatto sizni yomon yo'ldan qaytaruvchi psixolog desak ham bo'ladi.

Oltinchi: Nutqning maqsadga muvofiqligi: Ma'lumki, so'zlovchi tomonidan rejalashtirilgan yoki vaziyatga qarab so'zlanadigan nutq ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Ya'ni so'zlovchi aniq maqsad va manfaatni ko'zlab, til vositalaridan foydalanadi. Adabiy til me'yorlariga amal qilib so'zlangan nutq to'g'ri, aniq, toza, mantiqiy, ta'sirchan, demak, maqsadga muvofiq nutq sanaladi. Nutq ham aniq maqsadni ko'zlaydi. Nutq so'zlash jarayonida eng avvala maqsadingizga erishayotganingiz haqida o'zingizga savol bering. Maqsad nutqning ajralmas bir qismidir. Qism ajralsa, nutqda suslashish paydo bo'ladi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga asoslanib, «Nutq faoliyatida muallif o'z oldiga qo'ygan maqsadni eng aniq, eng to'g'ri, eng yaxshi, eng ta'sirchan, eng tushunarli qilib ifodalaydigan so'zlarni, so'z birikmalarni, gaplarni topishga, tanlashga intiladi. Bu vositalarni yaxlit qilib, «maqsadga muvofiqlik» deb belgilash mumkin». Nutq madaniyatining eng cho'qqisiga chiqishni niyat qilgan inson birinchi qadamini, maqsad bilan boshlashi darkor. Aks holda, u cho'qqiga chiqa olmay, yiqilib ketishi ham mumkin. Cho'qqiga ham chiqish oson bo'lmaydi. Yo'lida har xil harsangtoshlar, chuqurliklar, do'ngliklardan o'tishga to'g'ri keladi. Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek nutqning tozaligiga putur yetadigan odatlar, sizning nutq cho'qqisiga chiqishingizga halaqit berishi mumkin.

Xullas, yaxshi nutq so'zlovchi va yozuvchidan savodxonlikni, katta mehnatni talab qiladigan murakkab jarayon-dir. Umuman, nutq aniq va ravon, grammatik jihatdan to'g'ri shakllangan bo'lishi va orfoepik talablar darajasida talaffuz etilishi, boshdan oxirigacha izchil bayon qilinishi lozim bo'ladi. Ana shunday nutqgina tinglovchi va o'quvchi qalbiga borib yetadi. Shunday nutqgina madaniy nutq talablariga javob beradi. Buning uchun esa yozuvchi va omma oldiga chiqib nutq so'zlaydigan kishidan tinimsiz izlanish va o'z ustida ishlash, muttasil nutqiy mashq talab qilinadi.

Xulosa. Har birimiz O'zbek degan yurtida tug'ilgan ekanmiz, bu tilni sof holatda gapirishga harakat qilishimiz kerak. Chunki O'zbek tiliga, Davlat tili maqomi berilganidan so'ng, bu yurt ish hujjatlar-u, boshqa rasmiy, no rasmiy hujjatlarni O'zbek tilida olib borishdi. O'zbek tili juda boy til hisoblanadi. Boy tilning qadriga yeting. Nutqimizni ko'proq o'stiring. Badiiy asar o'qing. Nutqimgiz o'zidan o'zi o'sib boraveradi.

---

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. <https://fayllar.org>. nutqning to'g'riligi
2. <https://azkurs.org>. nutqning aniqligi.
3. Sinonimlardan to'g'ri foydalanish. Yosh kuch. Tos Pedagogik h Kent 2021. Nargiza Erkaboyeva. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. 126 bet.
4. Antonimlardan to'g'ri foydalanish. Yosh kuch. Toshkent 2021. Nargiza Erkaboyeva. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. 134 bet.
5. Ko'chma ma'noli so'zlardan o'rinli foydalanish. Yosh kuch. Toshkent 2021. Nargiza Erkaboyeva. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. 105 bet.
6. So'z birikmalarni to'g'ri qo'llash. Yosh kuch. Toshkent 2021. Nargiza Erkaboyeva. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. 459bet
7. [whhttps://uz.m.wikipedia.org](https://uz.m.wikipedia.org). Iboralardan to'g'ri foydalanish.
8. Nutqda qo'llaniladigan parazit so'zlar va ularni bartaraf etish. Maqola. Chirchiq Davlat Pedagogika instituti dotsenti A. M. Shofqorov. Chirchiq Davlat Pedagogika instituti talabasi  
N. S. Yo'ldosheva.
9. Azkurs. Uz . Konselyarizmlar.